

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

JOURNAL  
2022

№3

**Bosh muharrir:**  
**Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**  
**Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.**

**Mas’ul kotiblar:**  
**Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**  
**Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

**Tahririyat a'zolari:**

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

**Тарих ва Жамият илмий журнали**  
**XXI ASRDA MAFKURAVIY MUNOSABATLAR VA XAVFSIZLIK**  
**MUAMMOSI**

*Najmiddin Musinov*  
*JDPI katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada dunyoning mafkuraviy manzarasida sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlar hamda uning davlat, jamiyatga xavfsizlik nuqtai nazaridan ta'sirini o'rganishning nazariy jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mafkura, mafkuraviy xavfsizlik, dunyoning mafkuraviy manzarasi, xavf, tahdid, global muamolar

**Annotation:** This article describes the ideological processes taking place in the ideological landscape of the world and the theoretical aspects of studying its impact on the state and society in terms of security.

**Keywords:** ideology, ideological security, ideological worldview, threats, threats, global issues

**Аннотация:** В статье описаны идеологические процессы, происходящие в идеологическом ландшафте мира, и теоретические аспекты изучения их влияния на государство и общество с точки зрения безопасности.

**Ключевые слова:** идеология, идеологическая безопасность, идеологическое мировоззрение, угрозы, угрозы, глобальные проблемы.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtafigi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas.

XIX asrning ikkinchi yarmidan jahondagi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarda demokratik tamoyillarning shakllanib, rivojlanishi yuz bera boshladi. Demokratlashtirish, erkinlashtirish, iqtisodiyotning ochiqligi, havfsizlik muammolariga munosabatlarning bir-biriga yaqinlashuvi bugun jahondagi ko'pchilik davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarini belgilab bermoqda. Bundan ikki yuz yillar muqaddam jahoning hamma davlatlari avtoritar davlatlar edi. XIX asrning oxirida jahonda 13 tagina demokratik davlat bor edi. XX asrning birinchi yarmida ularning soni ikki marta ortdi, 1992 yilga kelganda esa jahondagi 183 davlatning 91 tasi demokratik davlat bo'ldi, yana 35 tasi esa avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish davrida turardi. SHu asosda umumsayyora ko'lamida axloqiy-masalalar va qiziqishning kuchayishi ravshanroq ayon bo'lmoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>«Жаҳон адабиёти», 2003, ноябр. 116-бет.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Hozirgi davr dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik, ozodlik, qonun ustuvorligi va inson erkinliklari kabi g‘oya va qadriyatlar umuminsoniy ahamiyatga ega. Ayni paytda, yaxshilik, adolat, millatlarning teng huquqligi, vijdon erkinligi, tabiatni asrash va shu kabilar umuminsoniy g‘oyalarga misol bo‘la oladi. Jamiyat rivojida ular xilma-xil tarzda, turli-tuman shakllarda namoyon bo‘lib, inson hayotining ma’naviy mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

Umuminsoniy g‘oyalarning har bir xalq mafkurasida ustuvor bo‘lishi shu xalqning jahon hamjamiyatiga teng huquqli a’zo sifatida barcha bilan tinchlik va hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi, erkin va farovon hayot barpo etishining muhim shartidir. Qayd etish lozimki, mamlakatimizdagi milliy mafkura umuminsoniy g‘oyalarga suyanadi, undan oziq oladi<sup>2</sup>.

Hozirgi davrda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar er yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bugun bu jarayonlardan biror kishi yoki mamlakat chetda qolmayapti. Ayniqsa, diniy ekstremizm, fundamentalizm yoki prozelitizm va boshqa egotsentrizmga asoslangan axloqsizlik g‘oyalarini kishilar ongiga singdirishdan iborat mafkuraviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy muammo darajasiga chiqib, unga qarshi kurashning xalqaro institutsional tizimini shakllantirish taqozo qilinmoqda. Bunday sharoitda, jamiyatni tashkil qilgan sinflar, ijtimoiy qatlamlarning manfaat va maqsadlarini uyg‘unlashtiruvchi imkoniyatlarni global miqyosda aniqlash zaruriyati vujudga keladi.

Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-tehnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish, tendensiya namoyon bo‘lmoqda. **Birinchidan**, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma’naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallahib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. **Ikkinchidan**, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o‘ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o‘z millatining kelajagiga xavf tug‘diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm,

<sup>2</sup>Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат) –Т.: 2002. –Б. 149.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo‘lmoqda. Biron–bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalari tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. «Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu goya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalari o‘rtasida azaldan kurash mayjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz».<sup>3</sup>

Natijada odamzod ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib bormoqda. Muayyan g‘oyani ilgari suruvchi, targ‘ibot va tashviqotning turli usul, vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta’sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalari asosida tashkil etilgan mafkuraviy markazlar favoliyati g‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlar jarayonida yanada keskinlashadi. O‘zining xarakteri, maqsadiga qarab ma’lum partiya, guruh, kishilar uyushmasi yoki davlat mafkuraviy markaz yadrosini tashkil etishi mumkin. Ularning o‘z harakat dasturi, mafkurani targ‘ib qilish vositalari, usullariga ega bo‘lib, unda muayyan g‘oyaga ishontirish, uyuşhtirish, safarbar etish, ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish, g‘oyaviy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni saqlash kabilalar muhim o‘rin tutadi. SHuningdek ular o‘z faoliyatlarini yashirin va oshkora yo‘l bilan amalga oshiradilar. Jhon tajribasidan shu narsa ma’lumki, ayrim mafkura markazlari, masalan, fashizm o‘z maqsadlarini oshkora e’lon qilib, zo‘ravonlik yo‘li bilan singdirgan. Mafkurani yashirin yo‘l bilan targ‘ib qilishda vayron qiluvchi g‘oya o‘zining soxta jozibasi, aldov va makr bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqeni egallab olishiga alohida e’tibor berilgan.

Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlarni mafkuraviy zabit etish g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir.

Agar tarix sahifalariga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, kuchli davlatlar zaif mamlakatlarni ochiqdan-ochiq bosib olib, ularga o‘z hukmini o‘tkazgan bo‘lsa, XX asr oxiriga kelib, bunday siyosat yangi bir shakl kasb etdi. Hozirgi vaqtida qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z ta’sir doirasiga olmoqchi bo‘lgan mamlakatlarning aholisi ongini o‘ziga qaram qilishga intilish kuchaymoqda.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat etakchi o‘ringa chiqdi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: «Hozirgi vaqtida ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda,

<sup>3</sup>Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008. –Б.112

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

*barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda».<sup>4</sup> Demak, endi qurol-yaroqlar emas, balki «fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya jaholatga qarishi ma‘rifat» bilan kurashib, olg‘a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g‘oyasi ma’naviy salohiyati kuchli bo‘lsa, uni xech kim engaolmaydi. Yosh avlodni ma’naviy tahdidlardan himoyalash, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qobiliyat va qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltirib borish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash hamda ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungu kunda dolzarb masalalardan biridir*

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Жаҳон адабиёти», 2003, ноябр. 116-бет.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий лугат) –Т.: 2002. –Б. 149.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б.112, 119
4. Aliyev, M. Маънавий таҳдидларга қарши курашишда мафкуравий иммунитетнинг роли. (2019)
5. Aliyev M. The Strategical Prospects of Providing Geopolitical Stability. 2021;.

---

<sup>4</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.119.